



MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISHDA ARXIVLARING ROLI

Yarkulov Alisher Atakulovich

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and
Literature, Associate Professor

yorqulov_a@mail.ru. Tel:+998998554163

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17762493>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 25-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 29-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

madaniy meros, arxiv, raqamlashtirish, hujjatlashtirish, saqlash, konservatsiya, arxiv hujjatlari, muhofaza qilish, restavratsiya..

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish jarayonida arxivlarning tutgan o'rni, ularning xalqaro standartlar bilan uyg'unligi hamda raqamli arxiv tizimlari rivoji, aslligini saqlash tizimida arxiv hujjatlarining nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda arxiv fondlari, xususan, davlat arxivlari va shaxsiy kelib chiqishga oid fondlar moddiy merosning huquqiy, ilmiy va ma'naviy qadriyatini tasdiqlovchi yagona ishonchli manba ekanligi asoslanadi. Xalqaro tajriba (ICCROM qo'llanmasi misolida) namunalar arxivi va hujjatlarni boshqarishning muhimligini ko'rsatadi. Maqolada arxiv hujjatlarining huquqiy himoya va restavratsiya jarayonlaridagi o'rni hamda ularni ilmiy aylanmaga kiritish va raqamlashtirishning dolzarb vazifalari yoritilgan.

Tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarni saqlash jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Madaniy meros obyektlari nafaqat moddiy boylik, balki millatning o'tmishi, o'ziga xosligi va ma'naviy silsilasining ko'zgidir. Ushbu qadriyatlarni himoya qilish va ularning aslligini ta'minlashda arxivlar alohida o'rin tutadi. Arxiv hujjatlari madaniy merosning ajralmas qismi bo'lib, ularning yaratilish tarixi, holati, restavratsiya jarayonlari va huquqiy maqomi to'g'risida birlamchi, ishonchli va noyob ma'lumot manbai hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida madaniy merosni saqlashga qaratilayotgan e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlardagi me'moriy yodgorliklar, shuningdek, turli davrlarga oid artefaktlar va namunalar o'rganish va himoya qilishning dolzarb obyektlaridir. Shu nuqtai nazardan, arxiv fondlarida saqlanayotgan hujjatlar, jumladan, loyihalar, hisobotlar, foto-negativlar va shaxsiy kelib chiqishga oid fondlar mazkur obyektlarni o'rganish, kataloglash va huquqiy jihatdan himoya qilish uchun fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi madaniy meros obyektlarini saqlash va boshqarish tizimida arxiv hujjatlarining nazariy va amaliy ahamiyatini tahlil qilish, shuningdek, bu boradagi xalqaro va mahalliy tajribalarni o'rganishdan iborat. Tadqiqotda, xususan, ICCROM tomonidan ishlab

chiqilgan namunalarni boshqarish bo'yicha qo'llanmalar hamda mintaqaviy arxivlarda saqlanayotgan shaxsiy fondlarning madaniy merosni saqlashdagi o'rni yoritiladi.

Muammo bayoni. O'zbekiston boy tarixiy va madaniy merosga ega mamlakat sifatida, meros obyektlarini saqlash va asrab-avaylashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri qilib belgilagan. So'nggi yillarda "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va foydalanish to'g'risida"gi qonun (2001-yil) hamda Hukumat qarorlarida arxivlar faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki arxivlar nafaqat tarixiy hujjatlarni, balki milliy o'zlikni ifodalovchi madaniy merosning ajralmas qismi – yozma, foto, audio va raqamli manbalarni ham saqlaydi.

Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, madaniy meros obyektlarini asrashda arxivlar nafaqat saqlovchi, balki ilmiy hujjatlashtiruvchi va raqamlashtiruvchi markaz sifatida xizmat qiladi [6]. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonda arxiv tizimini modernizatsiya qilish, raqamli saqlash infratuzilmasini yaratish hamda xalqaro standartlarga mos axborot tizimlarini joriy etish zarurati yanada ortmoqda.

Madaniy meros obyektlari millatning o'tmishi, hozirgisi va kelajagini bog'laydigan noyob boylikdir. Ular moddiy (arxeologik yodgorliklar, me'moriy inshootlar) va nomoddiy (urf-odatlar, musiqa, hunarmandchilik) shakllarda bo'lib, insoniyatning umumiy merosini tashkil etadi. Madaniy merosni muhofaza qilish va arxivlash masalasi bugungi kunda global muammo bo'lib, urbanizatsiya, iqlim o'zgarishi, qurolli mojarolar va texnologik rivojlanish tufayli kuchaymoqda. Ushbu maqolada madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishning huquqiy va ilmiy asoslari, arxivlashning zamonaviy usullari hamda O'zbekiston tajribasi ko'rib chiqiladi. Maqola maqsadi – mavzuning ilmiy tahlilini berish, xatarlarni baholash va saqlash strategiyalarini taklif etishdir. Tadqiqot YUNESKO konventsiyalari, O'zbekiston qonunlari va xalqaro ilmiy nashrlarga asoslanadi.

Madaniy merosning muhofazasi xalqaro huquqda YUNESKOning 1972 yilgi "Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Konventsiyasi bilan belgilangan bo'lib, u davlatlarga merosni identifikatsiya qilish, himoya qilish va kelajak avlodlarga etkazish majburiyatini yuklaydi [14]. Arxivlash esa raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi, bu esa merosni saqlashda yangi imkoniyatlar ochadi, ammo xatarlarni baholash va jamoa ishtirokini talab etadi [7, 20].

Tadqiqot metodlari. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va arxivlash milliy va xalqaro darajada muhim vazifadir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, madaniy merosni himoya qilishda YUNESKO konventsiyalari asosiy rol o'ynaydi, ular davlatlarning majburiyatlarini belgilab, ob'ektlarni identifikatsiya qilish, muhofaza qilish va kelajak avlodlarga etkazishni ta'minlaydi. O'zbekistonda moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari 8000 dan ortiq bo'lib, ularning katta qismi arxeologik yodgorliklardir; muhofaza qilish qonunlar va davlat kadastrlari orqali amalga oshiriladi. Arxivlashda raqamli texnologiyalar, masalan, 3D skanerlash va GIS tizimlari qo'llaniladi, bu esa merosni saqlashda xatarlarni kamaytirishga yordam beradi. Biroq, iqlim o'zgarishi va urbanizatsiya kabi xatarlar mavjud bo'lib, ularni baholash va boshqarish uchun xavf-xatarlarni boshqarish usullari tavsiya etiladi. Ushbu yondashuv madaniy merosni saqlashda muvozanatni ta'minlaydi, ammo mahalliy jamoalar ishtirokini kuchaytirish zarur.

Muhofaza qilishning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni (2001 y.) va

YUNESKOning 1972 yilgi Konventsiyasi asosida davlatlar merosni himoya qilish uchun siyosatni ishlab chiqishi shart. O'zbekistonda 8210 ta obyekt davlat muhofazasida, ulardan 4748 tasi arxeologiya obyektlaridir.

Arxivlash usullari. Raqamli arxivlash multimodal ma'lumotlarni (3D modellar, video, metadata) saqlashni o'z ichiga oladi. Xatarlarni baholashda ABC shkalalari qo'llaniladi, masalan, yong'in xavfi yuqori baholanadi.

Xatarlar va choralalar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, merosga tahdidlar (tabiiy ofatlar, o'g'irlik) ko'p, ammo xavf-xatarlarni boshqarish orqali ularni 90% gacha kamaytirish mumkin. O'zbekiston kontekstida GIS va satellit monitoringi tavsiya etiladi.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida kata ahamiyatga ega bo'lgan vositalardan biri bu arxiv hisoblanadi.

Madaniy merosni arxivlar orqali kelgusi avlodga etkazishda turli manbalar bo'lishi mumkin:

1. OAV da madaniy meros obyektlari haqidagi yozuvlar (tarixiy asarlar, maqola, monografik asarlar, risola, foto yoki tasviriy suratlar, hujjatli filmlar va shu kabilar).
2. Madaniy meros obyektlari haqidagi hujjatlar (normativ-huquqiy va asrashga doir hujjatlar)
3. Madaniy meros obyektlariga doir tadqiqot ishlari hamda dastlabki chizma, tarx, loyiha-smeta hujjatlari va boshqalar.

Tahlil va natijalar. Madaniy meros obyektlari – bu millatning tarixiy xotirasidir. Arxivlar esa bu xotirani tizimli ravishda saqlovchi va hujjatlashtiruvchi muassasalardir. Xalqaro Arxivlar Kengashi (ICA) tomonidan ishlab chiqilgan “Guidelines on Exhibiting Archival Materials” hujjatida arxivlar “merosning yashovchanligini ta'minlovchi markazlar” sifatida tavsiflanadi [6, 3-6]. Unda qayd etilishicha, hujjatlarni namoyish qilishda saqlash va xavfsizlik o'rtasida muvozanatni topish muhim: “Ekspozatlar uchun yorug'lik darajasi 50 luxdan oshmasligi lozim” [6, 4-5]. Bu tamoyil O'zbekiston muzey va arxivlarida amalda qo'llanilmoqda.

Arxivlar madaniy meros obyektlari bilan bevosita aloqada bo'lib, ular haqida ilmiy ma'lumotlarni yig'adi, saqlaydi va jamoatchilikka etkazadi. Shu bilan birga, ular meros obyektlarini restavratsiya va konservatsiya qilishda ham asosiy ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda arxivlar faoliyati “Arxiv ishi to'g'risida”gi Qonun (2010-yil) hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tartibga solinadi. Milliy arxiv fondi tarkibida 200 mingdan ortiq yozma manbalar, 100 mingdan ziyod fotosuratlar va minglab ovozli hujjatlar mavjud. So'nggi yillarda “Elektron arxiv” loyihasi orqali bu manbalar raqamlashtirilmoqda.

Bu jarayon *Cultural Heritage Documentation and Digital Archiving Guided*da belgilangan uch bosqich – aniqlash, hujjatlashtirish va raqamli arxivlash tamoyillariga to'la mos keladi [12, 6].

Unga ko'ra, har bir madaniy meros elementi dastlab identifikatsiya qilinadi, so'ng inventarizatsiya qilinib, keyin raqamli muhitga o'tkaziladi [12, 18-19].

*Selection Toolkit for Archaeological Archives*da (Historic England, 2019/2022) arxivlar “ilmiy tanlov va saqlash strategiyasi” asosida ishlashi lozimligi qayd etilgan [5, 4-6].

Bu hujjatga ko'ra, har bir loyiha o'zining tanlov strategiyasini ishlab chiqishi, muhim bo'lmagan materiallarni chiqarib tashlab, tarixiy va madaniy ahamiyatga ega hujjatlarni uzoq muddatli saqlashga yo'naltirishi zarur [5, 5].

O'zbekiston arxivlari ham bu tajribani o'zlashtirib, so'nggi yillarda ilmiy asosda hujjatlarni toifalash, elektron kataloglashtirish va metama'lumotlar tizimini yaratish ishlarini yo'lga qo'yimoqda.

Bundan tashqari, *Cultural Heritage Documentation Guideda* raqamli saqlash jarayoni "madaniy merosning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omil" sifatida talqin etiladi [12, 18-19].

Shu asosda O'zbekistonda "Yagona elektron madaniy meros bazasi"ni yaratish, barcha arxiv, muzey va kutubxona fondlarini yagona raqamli platformaga birlashtirish dolzarb masalaga aylandi.

Raqamli arxivlash – bu merosni kelajak avlodlarga xavfsiz etkazishning eng samarali yo'lidir. CPTA (2006) qo'llanmasida ta'kidlanishicha, "hujjatlarning kimyoviy va fizik o'zgarishlari ularning muhitga bo'lgan sezuvchanligidan kelib chiqadi, shuning uchun harorat, yorug'lik va namlik doim nazorat ostida bo'lishi kerak" [6, 3-4].

O'zbekistonda raqamlashtirish jarayonlari aynan shunday ekologik muhofaza standartlariga asoslanib olib borilmoqda. Milliy arxiv tizimi, ayniqsa, noyob fotosuratlar, kinolavhalar va qo'lyozmalarni raqamlashtirish bo'yicha xalqaro metodikalarni qo'llamoqda.

Raqamli arxivlar, shuningdek, ochiq ma'lumotlar siyosatini rivojlantirish orqali tadqiqotchilar va jamoatchilik uchun kengroq imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayon madaniy merosni "faol xotira"ga aylantirib, uni jamoaviy o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Madaniy meros obyektlari tarixiy, ilmiy, badiiy yoki madaniy qimmatga ega bo'lgan jismlar va hodisalardir. YUNESKO Konventsiyasiga ko'ra, moddiy madaniy meros me'moriy asarlar, haykaltaroshlik, arxeologik yodgorliklar va ansambllarni o'z ichiga oladi [14]. Nomoddiy meros esa urf-odatlar, xalq ijodiyoti va bilimlarni qamrab oladi [15, 4].

O'zbekistonda madaniy meros obyektlari ikki guruhga bo'linadi: moddiy va nomoddiy. Moddiy merosga ansambllar (ijtimoiy, diniy inshootlar), diqqatga sazovor joylar (tarixiy manzilgohlar, shaharsozlik markazlari) va yodgorliklar (imoratlar, memorial uylar, arxeologik ob'ektlar) kiradi [13]. Mamlakatda 8210 ta moddiy meros ob'ekti davlat muhofazasida bo'lib, ulardan 4788 tasi arxeologik, 2265 tasi arxitektura, 625 tasi monumental san'at va 530 tasi diqqatga sazovor joylardir [17]. YUNESKO Umumjahon merosi ro'yxatiga Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlari kirgan [16].

Nomoddiy merosga "Boysun madaniy muhiti", "Shashmaqom musiqasi", "Navro'z" kabi elementlar kiradi, ular YUNESKO representativ ro'yxatida [16]. Arxivlashda bu ob'ektlar raqamli shaklda saqlanadi, masalan, video va audio yozuvlar orqali.

Madaniy merosni muhofaza qilish davlat siyosati bilan ta'minlanadi. YUNESKO Konventsiyasining 4-moddasiga ko'ra, davlatlar merosni identifikatsiya qilish, himoya qilish va ta'mirlash majburiyatini oladi [14]. O'zbekiston Qonuniga muvofiq, ob'ektlar davlat kadastriga kiritiladi, ularda nom, manzil, texnik holati va muhofaza zonalari ko'rsatiladi [13].

Ilmiy yondashuvda meros qadriyatlarini baholash muhim. Getty Conservation Institute hisobotiga ko'ra, qadriyatlar ijtimoiy-madaniy (tarixiy, estetik, ruhiy) va iqtisodiy (foydalanish, mavjudlik) turlariga bo'linadi [4, 10]. Baholash usullari etnografik tadqiqotlar, intervyular va iqtisodiy modellashtirishni o'z ichiga oladi [4,31].

O'zbekiston tajribasida meros muhofazasi 1993 yildan YUNESKOga qo'shilish bilan kuchaygan. 5 ta obyekt Umumjahon ro'yxatida, jumladan Xivaning Ichanqal'asi (1990 y.) va Buxoro markazi (1993 y.) [2, 49]. 2019 yilgi Vazirlar Mahkamasi qarori muhofaza zonalari va master-rejalarni belgilaydi [2, 51].

Xatarlarni boshqarish ICCROM qo'llanmasiga asoslanadi, u 10 ta tahdid agentini (yong'in, suv, zararkunandalar) va 6 ta himoya qatlamini (hudud, bino, xona) ajratib ko'rsatadi [7]. Xatarlar bahosi ABC shkalasi orqali amalga oshiriladi: A – chastota, B – zarar darajasi, C – ta'sir qismi [8]. Masalan, yong'in xavfi MR=12,5 baho bilan yuqori darajada baholanadi [8].

Quyidagi jadvalda madaniy meros xatarlarining tasnifi keltirilgan:

Xatar turi	Misol	Ta'sir darajasi (ABC bahosi)	Muhofaza chorasi
Tabiiy ofatlar	Yong'in	MR=12,5 (yuqori)	Yong'inga qarshi tizimlar (blokirovka bosqichi)
Tabiiy ofatlar	Yong'in	MR=12,5 (yuqori)	Yong'inga qarshi tizimlar (blokirovka bosqichi)
Kimyoviy tahdidlar	Havoning ifloslanishi	MR=7,5 (o'rta)	Filtrlar va monitoring (oldini olish)
Raqamli tahdidlar	Ma'lumot yo'qolishi	MR=8 (o'rta)	Zaxira nusxalar va blockchain

Ushbu jadval xatarlarni baholash va choralar ko'rishda yordam beradi [8].

Arxivlash madaniy merosni raqamli shaklda saqlashni nazarda tutadi. ISPRS arxivlaridagi tadqiqotga ko'ra, raqamli arxivlar to'rt o'lchovli: ontologik (gen banki), jarayoniy (harakatlar zanjiri), tashkiliy (tarmoq) va ikkilamchi mahsulotlar (innovatsion terminallar) [9]. Texnologiyalar 3D skanerlash, GIS, AI va blockchaynini o'z ichiga oladi, bu ma'lumotlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlaydi [9].

YUNESKO Nomoddiy meros Konventsiyasiga ko'ra, arxivlash inventarizatsiya va hujjatlashtirish orqali amalga oshiriladi, jamoa ishtiroki bilan [15]. O'zbekistonda davlat kadastrida ob'ektlarning raqamli xaritalari yaratiladi, satelit monitoringi qo'llaniladi [10, 482]. Raqamli arxivlashning afzalliklari: ma'lumotlarning uzoq muddat saqlanishi va jamoaviy foydalanish. Biroq, epistemologik muammolar mavjud – raqamlashtirish madaniy ma'noni yo'qotishi mumkin [9, 1222]. Choralar sifatida metadata standartlari va politsentrik boshqaruv tavsiya etiladi [9,1226].

O'zbekiston kontekstida arxivlash 2002 yilgi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tartibga solinadi, u kadastrni yuritish tartibini belgilaydi [10, 482]. Xalqaro hamkorlikda YUNESKO loyihalari orqali raqamli platformalar yaratilmoqda.

O'zbekistonda meros muhofazasi mustaqillikdan keyin rivojlangan. 1920-yillarda Turkiston qo'mitasi tashkil etilgan, hozirda Madaniy meros agentligi mas'ul [10, 483]. Muammolar: texnik holatning yomonlashishi, turizm potentsialining to'liq ishlatilmasligi va zamonaviy monitoringning etishmasligi [10, 483].

Xalqaro tajribada YUNESKO standartlari qo'llaniladi, masalan, meros qadriyatlarini baholashda etnografik usullar (REAP) ishlatiladi [4, 39]. O'zbekistonda Surxondaryo viloyatida 561 ta obyekt bor, ulardan 44 tasi arxeologik [2, 49]. Turizmni rivojlantirish uchun 2019 yilgi

qaror yo'llarni ta'mirlashni nazarda tutadi [2, 50].

Xatarlarni boshqarishda 5 bosqich: oldini olish, blokirovka, aniqlash, javob berish va tiklash qo'llaniladi [8, 101]. Masalan, muzeylarda zararkunandalarga qarshi choralar 90% samarali [8, 111].

Madaniy meros obyektlarining, ayniqsa, ular bilan bog'liq bo'lgan namunalar (samples) va artefaktlarning yozma tarixi muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir restavratsiya yoki konservatsiya jarayoni, tahlil uchun olingan material namunalari hamda ushbu namunalarga oid ma'lumotlar hujjatlashtirilgan va arxivlashtirilgan bo'lishi shart. Xalqaro tajribaga ko'ra, bu hujjatlar kelajak avlodlar uchun meros obyektining asl holati va o'tkazilgan ishlar to'g'risidagi yagona ishonchli manba hisoblanadi.

Xalqaro madaniy qadriyatlarni saqlash va tiklash markazi (ICCROM) tomonidan ishlab chiqilgan "Heritage Samples Archives – A Guide for Management" qo'llanmasida madaniy meros namunalarini arxivi (Heritage Samples Archives) yaratishning muhimligi alohida ta'kidlangan. Unga ko'ra, namunalar arxivi faqat jismoniy namunalarning o'zini emas, balki ularga oid barcha hujjatli ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Jumladan, ushbu qo'llanmaning hujjatlar bilan bog'liq qismida namunalar arxividagi materiallarga kirish va ulardan foydalanish shartlari aniqlab berilgan. Masalan, ushbu qo'llanmada arxivarius (custodian) va vakolatli foydalanuvchi (Authorized User) o'rtasidagi kelishuv shartlari va hujjatlarni saqlash reglamenti (Access Regulations) borasida bandlar mavjud [8, 62]. Ushbu kelishuvning barcha shartlari, jumladan, muddati, to'xtatish tartibi va mas'uliyat cheklovlari belgilab qo'yiladi [8, 62]. Bu amaliyot arxividagi ma'lumotlarning huquqiy himoyalanganligini va ulardan foydalanishning tartibga solinganligini ta'minlaydi.

Buxoro viloyati davlat arxivining faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, arxiv hujjatlari xalqning boy tarixiy merosi ekanligi va ularsiz ilm-fan, madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni anglash mumkin emasligi alohida ta'kidlanadi [1, 1]. Bu esa, madaniy merosning moddiy obyektlarini o'rganishda arxiv hujjatlari ajralmas manba sifatida xizmat qilishini tasdiqlaydi. Arxivlar barcha uchun ochiq bo'lib, ular orqali inson o'z tarixining jonli sahifalariga daxldor bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi [1, 1].

Madaniy merosni asrab-avaylashda davlat muassasalari fondlari qatorida shaxsiy kelib chiqishga oid arxiv fondlari ham muhim rol o'ynaydi. Sibirning mashhur jamoat va madaniyat arboblarning shaxsiy fondlari (masalan, Omsk viloyati tarixiy arxivida saqlanayotganlari misolida) madaniy merosning saqlanishiga xizmat qiladi. Bu fondlarning tarkibi va mazmunida nafaqat tarixiy shaxslarning hayoti, balki ular faoliyat olib borgan hududning madaniy-tarixiy muhiti aks etgan. Xususan, tarixchi-arxivarius Nikolay Vasilevich Gorban (1899–1973) haqidagi xotiralar kabi hujjatlar ham mintaqa madaniyatiga tegishli qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [3, 1].

Arxiv hujjatlarining o'ziga xosligi, ularning qadriyat sifatida namoyon bo'lishida aks etadi. Bu hujjatlar ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lishdan tashqari, madaniy merosning huquqiy va ma'naviy qiymatini ham oshiradi. Shaxsiy fondlar, ayniqsa, madaniy meros obyektlarining "tarjimai holi"ni tiklashda, ularning o'tmishdagi egasi yoki yaratuvchisi haqida batafsil va insoniy jihatdan boy ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu fondlarning mazmuni ularni ommalashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi, bu esa madaniy merosga bo'lgan jamoatchilik e'tiborini oshiradi.

Madaniy meros obyektlarining muhofazasi nafaqat fizika va kimyo fanlari, balki huquqiy tartibga solishni ham talab qiladi. Arxiv hujjatlari, bu borada, obyektning huquqiy maqomi, mulkchilik tarixi va o'tkazilgan restavratsiya ishlarining qonuniyligini tasdiqlovchi asosiy dalillar bazasi sifatida xizmat qiladi. Arxiv ma'lumotlari, asosan, obyektning asl ko'rinishi, uning yaratilishi sanasi va keyingi o'zgarishlari to'g'risidagi birlamchi yozma guvohnomalarni o'z ichiga oladi.

Arxivlarning huquqiy ahamiyati, ayniqsa, madaniy boyliklarning noqonuniy olib chiqilishi, o'zlashtirilishi yoki buzilishi bilan bog'liq nizolarda yaqqol namoyon bo'ladi. Xalqaro miqyosda, YUNESKONing Madaniy qadriyatlarining noqonuniy olib kirilishi, olib chiqilishi va mulkiy huquqining o'tkazilishini taqiqlashga va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi Konvensiyasi (1970) bunday nizolarni hal qilishda hujjatlashtirishning muhimligini ta'kidlaydi [11]. Obyektning yaratilgan davri, uning egasi va saqlanish tarixi haqidagi arxiv hujjatlari (masalan, ro'yxatga olish kitoblari, inventarizatsiya hujjatlari) uning madaniy qiymati va davlat mulki ekanligini isbotlash uchun asosiy huquqiy dalil bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, arxiv hujjatlari Madaniy merosni boshqarish (Management) jarayonida ham muhimdir. Masalan, ICCROM qo'llanmasida keltirilganidek, har qanday madaniy meros namunasiga oid hujjatli ma'lumotlar, shu jumladan kirish reglamentlari (Access Regulations), namunadan foydalanish, ko'chirish va uni boshqarishning aniq shartlarini belgilaydi [8, 62]. Ushbu tartib-qoidalar, arxivarius va vakolatli foydalanuvchi o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni qonuniy jihatdan rasmiylashtiradi va har ikki tomonning majburiyatlari va huquqiy javobgarligini belgilab beradi. Hujjatlarning to'g'ri va tartibli saqlanishi, bu hujjatlardan keyinchalik sud jarayonlarida yoki huquqiy ekspertizalarda foydalanish imkonini beradi.

Arxivlarning madaniy merosni saqlashdagi salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun ularda saqlanayotgan hujjatlarni ilmiy aylanmaga kiritish va populyarizatsiya qilish dolzarb vazifa hisoblanadi. Madaniy meros obyektlari to'g'risidagi noyob ma'lumotlar yopiq fondlarda saqlanishi natijasida ko'pincha ulardan olimlar va jamoatchilik bexabar qoladi.

Shaxsiy kelib chiqishga oid fondlarni o'rganish natijasida olingan ma'lumotlarning nashr etilishi va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish madaniy merosning ma'naviy qiymatini oshirishga xizmat qiladi [3, 1]. Masalan, Sibir tarixchisi N. V. Gorban haqidagi xotiralarning birinchi marta e'lon qilinishi, uning madaniyat va arxiv ishiga qo'shgan hissasi haqida yangi ma'lumotlar beradi, bu esa mintaqaning madaniy qatlamini boyitadi. Arxiv fondlarining ma'lumot berish potentsialini ochib berish orqali, tadqiqotchilar me'moriy yodgorliklarning o'tmishdagi holati, ularni loyihalagan shaxslar va ular bilan bog'liq muhim tarixiy voqealar to'g'risida yangi bilimga ega bo'lishi mumkin.

Buxoro viloyati davlat arxivining faoliyatida arxiv hujjatlarini saqlash va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash borasida tizimli islohotlar olib borilmoqda. Archiv hujjatlarini digitalizatsiya qilish va ular to'g'risida onlayn ma'lumotlar bazasi yaratish bu jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biridir [1, 2]. Elektron ma'lumotlar almashinuvi va axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniy merosga oid hujjatlarga tezkor kirishni ta'minlaydi va ularning ilmiy aylanmaga kirishini sezilarli darajada tezlashtiradi.

Biroq, bu jarayonda arxiv hujjatlarining saqlanishi va xavfsizligi masalasi birinchi o'rinda turishi shart. Hujjatlarni raqamlashtirish ularning fizik saqlanishini ta'minlashga yordam

beradi, ammo ularning aslligini va buzilmasligini kafolatlash uchun zamonaviy axborot xavfsizligi standartlariga amal qilish talab etiladi.

Xulosa. Arxivlar O'zbekistonning madaniy merosini saqlash, hujjatlashtirish va targ'ib etishning muhim bo'g'inidir. Ular tarixiy xotirani faqat saqlab qolmay, balki uni raqamli shaklda qayta tiklaydi va kelajak avlodga etkazadi. Xalqaro tajriba (CPTE, Historic England, UNESCO) asosida olib borilayotgan islohotlar O'zbekiston arxivlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamlashtirish, elektron kataloglashtirish va hujjatlarni ilmiy asosda tanlab saqlash jarayonlari madaniy merosni muhofaza qilishda arxivlarning rolini yanada oshiradi.

Kelgusida O'zbekiston arxivlari uchun asosiy vazifa — xalqaro axborot tizimlariga integratsiya qilish, ochiq raqamli platformalar yaratish va madaniy merosni global ilmiy muhitda targ'ib etishdir.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va arxivlash global va milliy darajada strategik vazifadir. YUNESKO konventsiyalari va O'zbekiston qonunlari asosida amalga oshiriladigan bu jarayon xatarlarni baholash, raqamli texnologiyalar va jamoa ishtirokini talab etadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, merosni saqlashda huquqiy asoslarni kuchaytirish, GIS va AI ni joriy etish zarur. Kelajakda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va mahalliy jamoalarni jalb qilish orqali merosni himoya qilish mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat o'tmishni saqlaydi, balki madaniy identifiklikni mustahkamlaydi.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ularning aslligini saqlash murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda arxiv hujjatlari markaziy va ajralmas o'rinni egallaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, arxiv fondlari, xususan, davlat arxivlari va shaxsiy kelib chiqishga oid fondlar, madaniy merosning nafaqat tarixiy, balki huquqiy, ilmiy va ma'naviy qadriyatini ham tasdiqlovchi yagona ishonchli manbadir.

Kelajak istiqbollari. Madaniy meros namunalarining boshqaruvi bo'yicha ICCROM tomonidan belgilangan xalqaro standartlar, restavratsiya jarayonlari, sinovlar va namunalar haqidagi barcha ma'lumotlarning tizimli arxivlashtirilishi shart ekanligini tasdiqladi. Bu hujjatlar kelajakda amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar va konservatsiya ishlarining ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi. Shuningdek, shaxsiy fondlardagi ma'lumotlar meros obyektlarining "ma'naviy tarjimai holi"ni tiklashda, ularni yaratgan yoki saqlagan shaxslar haqida boy ma'lumot berishda beqiyosdir.

Kelajakda O'zbekistonda madaniy merosni himoya qilish samaradorligini oshirish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozim:

1. Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish va ularni yagona, xavfsiz ma'lumotlar bazasida jamlash.
2. Madaniy meros obyektlariga oid hujjatlarni saqlash, boshqarish va ulardan foydalanishda "xalqaro standartlar (masalan, ICCROM usullari)"ni joriy etish.
3. Shaxsiy kelib chiqishga oid fondlarni to'plash va ularni ommalashtirish orqali madaniy merosning ilmiy aylanmaga kirishini va jamoatchilik e'tiborini kuchaytirish.
4. Arxiv mutaxassislari va restavratorlar o'rtasida doimiy hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, arxivlar nafaqat o'tmishning arxivchisi, balki madaniy merosning kelajakdagi himoyachisi hamdir. Ulardagi ma'lumotlarni saqlash, boshqarish va ilmiy jihatdan

tahlil qilish, milliy merosimizning aslligini va buzilmasligini ta'minlashning eng muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аббасова С. Рол архива в системе научного знания об истории Бухарской области. Информационно-библиотечный вестник «INFOLIB», с. 1.
2. Bo'riyev A. O'zbekistonning moddiy-madaniy merosi obyektlarining YUNESKO umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilish tarixi. International scientific journal of Biruni, Vol. 2, Issue 1. Feb. (2023).
3. Елизарова, Н.В. Рол архивних фондів личного происхождения в сохранении культурного наследия (на примере Исторического архива Омской области). СибА, УДК 930.253, с. 1.
4. Getty Conservation Institute. Assessing the Values of Cultural Heritage. 2002.
5. Historic England. Toolkit for Selecting Archaeological Archives. March 2019 (updated March 2022). – pp. 4-6.
6. ICA Committee on Preservation of Archives in Temperate Climates. Guidelines on Exhibiting Archival Materials. CPTЕ, 2006. – pp. 3–6.
7. ICCROM. A Guide to Risk Management of Cultural Heritage. 2016.
8. ICCROM. Heritage Samples Archives – A Guide for Management. Rome: ICCROM, 2025. P. 62.
9. ISPRS Archives. Digital Cultural Heritage Archives: Conceptual Analysis. 2025.
10. Umarov N.Sh., Raximov U.A. Moddiy madaniy meros obyektlari davlat kadastrini tadqiq etishning nazariy asoslari. Journal of engineering, mechanics and modern architecture, "Arxitektura-qurilish sohalarida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning dolzarb muammolari" mavzusidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutining universitet maqomiga erishganligining 1-yilligiga bag'ishlangan I- xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2024.
11. Конвенция о мерах, направленных на запрещение и предупреждение незаконного ввоза, вывоза и передачи права собственности на культурные ценности. Ратификация қилинган: СССР Олий Кенгаши Президиумининг 1988 йил 2 февралдаги 8423-XI-сонли Фармони // Международные нормативные акты ЮНЕСКО. Москва: Логос, 1993. С. 421-422.
12. Ministry of Culture Saudi Arabia. Cultural Heritage Documentation and Digital Archiving Guide. 2021. – pp. 6, 18-19.
13. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida, 2001.
14. UNESCO. Convention Concerning the Protection of the World Cultural and Natural Heritage. 1972.
15. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. 2003.
16. <https://ich.unesco.org/en/lists>
17. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида. 2019 йил 4 октябрь, 846-сон.